

XXI ASRDA TARBIYA TEXNOLOGIYALARINING O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI

Kurambayeva Qunduzxon Arslonbekovna

Urganch RANCh texnologiyalari universiteti

Pedagogika yo'nalashi, 1-boshqich magistratura talabasi.

qunduzxonkuromboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15270715>

Annotatsiya. O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so'zlashishni bilish lozim.

So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'yish lozim.

Kalit so'zlar: muloqot, so'z, shaxs, pedagogika, o'quvchi.

THE FORMATION OF TEACHER-STUDENT RELATIONSHIPS THROUGH EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE 21ST CENTURY

Abstract. Dealing with students requires the pedagogue's ability to communicate with his students. And for us, it is necessary to know how to speak. He should always learn to speak and communicate. He should be able to conduct a lesson effectively, know how to speak, use such methods as conversation, lecture, storytelling, and in general, he should be able to communicate with students throughout the entire educational process.

Keywords: communication, word, person, pedagogy, student.

ФОРМИРОВАНИЕ ОТНОШЕНИЙ УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКА ПОСРЕДСТВОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В 21 ВЕКЕ

Аннотация. Работа со студентами требует от педагога умения общаться со своими учениками. А нам необходимо уметь говорить. Он всегда должен учиться говорить и общаться. Он должен уметь эффективно провести урок, уметь говорить, использовать такие методы, как беседа, лекция, рассказывание историй и в целом уметь общаться с учащимися на протяжении всего учебного процесса.

Ключевые слова: общение, слово, человек, педагогика, студент.

KIRISH

Muloqot - yunoncha so'z, so'zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og'zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlashuvidir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

Nimaga o'rgatish? Kimni o'rgatish? Qanday o'rgatish?

Nimaga o'rgatish: a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;

b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;

v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish;

g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

Kimni o'rgatish: a) o'quvchilarning ba'zi psixologik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash;

b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash;

v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariig dalillari, fikrlarini hisobga olish;

g) o'quvchilardagi turli psixologik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish;

d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishniig asosiy usullari - bu talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan yoki bu xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Istiqbol – ta'sir ko'rsatishniig juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini, ular oldiga qo'yilgan maqsadlar, ularning shaxsiy intilishlari, qiziqishlariga aytiladi.

Rag'batlantirish va jazolash o'quvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuv-chilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikri - tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borshini ta'minlaydi.

O‘zaro fikr almashish bilan ta’sir ko‘rsatish vositalari: ishontirish, ta’sir qilish, o‘zaro fikr almashish bilan ta’sir ko‘rsatish.

Ishontirish pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli sifatida darslarda o‘quv axboroti, ijodiy suhbatlar, munozaralar, siyosiy axborotlar shaklida qo‘llaniladi.

Ta’sir qildirish kishi psixologiyasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta’sir qilish shunday bir psixologik ta’sir ko‘rsatishi, kishi uni ongining yetarli nazoratisiz idrok etadi.

a) pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, usullarni qo‘yish;

b) o‘quvchilarga yakka individual holda munosabatda bo‘lish, ularni mustaqil ishlarini tashkil etish.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo‘lishi lozim: tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallash, pedagogik munosabat madaniyatini egallash, tashkilotchilik mahorati, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallash.

Munosabatlarni boshqarish uslublari:

1. Avtoritar uslub

2. Demokratik uslub

3. Liberal uslub

1. Avtoritar uslub:

- o‘zi yakka holda guruh faoliyatini yo‘nalishini belgilaydi;
- o‘zi ko‘rsatma-buyruq beradi;
- javobgarlikni o‘z bo‘yniga oladi;
- so‘zsiz bo‘ysunishni da’vo etadi;
- qattiq intizomni talab etadi;
- aytilgan narsani to‘liq bajarilishini talab etadi;
- gap qaytarganni, gap o‘rgatganni yoqtirmaydi. Aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. So‘zlari qattiq va qo‘pol. Biron bir masalani tushuntirmaydi, lekin talab etadi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko‘rsatma berish, qo‘llanma bilan ishlash, xayfsan e‘lon qilish;
- muomalada qo‘pol, dag‘al, do‘q-po‘pisali majbur etish, qo‘rqitish, cho‘chitish orqali kirishadi;
- avtoritar uslubning ijobiy tomoni favqulodda vaziyatlar ishlatilishi (yong‘inda, suv toshqinda).

Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdaqlar uchun qiyin yoki og'ir ahvol.

2. Demokratik uslub:

- jamoa fikriga tayanib ish olib boradi;
- jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi;
- boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos maslahat berish, samimiy muomala.

3.Liberal uslub:

- tashabbusiz, jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi;
- bolalarga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z ishiga sovuqqon.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari ko'rsatilgan:

- hamkorlikdagi munosabat;
- bivosita munosabat;
- do'stona munosabat,
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog.

O'quvchi o'z o'qituvchisini haqqoniy va talabchan, kundalik hayot muommolarini to'g'ri hal qilishga o'rgatuvchi shaxs sifatida tasavvur etadi. O'quvchilar o'qituvchidagi har bir noaniq harakatlarni o'z vaqtida ilg'ab oladilar. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar paydo bo'lgan muammoni asosan bir taraflama, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal etmoqchi bo'ladi. O'z o'quvchisining tabiatini yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda talabaga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishda yordam berishi kerak.

O'qituvchi o'z fikrini doimo haqiqiy fikrga asoslangan holda ishonitirish yo'li bilan tushuntirishi lozim.

O'qituvchiga nisbatan oddiy va samimiy munosabatda bo'lish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir. Qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar oldida o'quvchilar kamgap bo'lib, haqiqiy munosabatlarni berkitishga xarakat qiladilar. Ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchilarining boshqa o'qituvchilar sinfidagi ishlar bilan tanishishlariga qarshilik ko'rsatadilar.

O'quvchida namoyon bo'layotgan ijodiy intilishga hech qachon qarshilik ko'rsatish kerak emas. Undagi kelajakka bo'lgan umid va ishonchni qo'llab-quvvatlash yaxshi natija beradi.

O'zidan avvalgi o'qituvchilarning ishini tanqid ostiga olish o'quvchiga salbiy ta'sir ko'rsatib o'qituvchiga bo'lgan ishonchga putur etkazishi mumkin.

Pedagogik qobiliyat bilimlarni o'quvchilarga aniq, ravon, tushunarli va qiziqarli qilib etkazish, o'quvchining psixologiyasini tushunish, bajariladigan ishda o'xshashliklarga yo'l qo'ymaslik, o'z faoliyatini tanqid va tahlil qila olish kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'qituvchi ba'zi tashkiliy ishlarni ham amalga oshirishi kerak bo'ladi: ishni rejalashtirish, konkret sharoit va o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda sinf va uy mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqalar. O'qituvchi harakteridagi individual hususiyatlar tarbiya ishida katta ahamiyatga ega.

O'qituvchilardan irodali bo'lish, maqsadga to'g'ri intilish, talabchanlik bilan har bir ishni o'z vaqtida oxiriga etkaza olish, qiyinchiliklarni engishda mardlik ko'rsata olish kabilar talab etiladi. Ta'lim ishining muvaffaqiyatli bo'lishi o'quvchining kamchiliklarini tushuntirish va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga bog'liqdir.

O'quvchi bilan bo'lgan muomalada o'zini tuta bilamaslik, jaxldorlik va boshqa shunga o'xshash kamchiliklar o'qituvchi obro'siga putur etkazadi. Muomalada o'ta to'g'rilik, qat'iylik va kamtarinlikni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchi o'z bilimini to'xtovsiz to'ldirib borishi kerak. U maxsus adabiyotlar bilan qiziqishi, mashhur o'qituvchilar tajribasini o'rganishi, shaxsiy tajribasini tahlil qilib, umumlashtira olishi lozim. Bunday o'qituvchilarning darslari doimo qiziqarli va mazmunli o'tadi.

O'quvchiga qanday musiqa asari yoqadi-yu, qanday asar ijro etish istagi borligini o'qituvchi albatta hisobga olishi kerak. Oldin aytib o'tilganidek, o'qituvchi o'z sinfida o'quvchilarning yuksak musiqiy didlarini shakllantirish bo'yicha kerakli ish olib borishi zarur.

Umuman o'quvchi faol, u yoki bu muammoni mustaqil hal eta oladigan qilib tarbiyalanishi lozim.

O'qituvchi o'quvchisining ijobiy va salbiy taraflarini chuqur o'rganib, o'zining tarbiyaviy ishini tashkil etadi. Har bir o'quvchining tarbiyasi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, biri ikkinchisidan farq qiladi. O'quvchi mahoratining muhim taraflaridan biri har bir o'quvchidagi yaxshi xususiyatni vaqtida topib, o'nga e'tibor berishdir.

O'quvchi ta'lim tarbiya jarayonida asosiy shaxs bulib, uning pedagogik maxorati va bilimi xaqiqiy ijroni shakllantirishda xalq qiluvchi omil bulib xizmat qiladi. Bu mahoratni rivojlantirishda boshqa o'qituvchilarning ishlari bilan tanishish juda katta ahamiyatga ega.

Ilgor pedagogika metodlarni yaqindan o'rganish tarbiya jarayonida uchrab turadigan kamchiliklarni bartaraf etishda o'qituvchilarga yordam beradi. O'qituvchi o'z ishiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi, kasbdoshlarning maslaxatlarini to'g'ri qabul qilish kerak.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu munosabatlar nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ta'lim muassasalaridagi me'yorlar, o'quvchi va o'qituvchi shaxsiyatlari, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar hamda psixologik va madaniy omillar bu munosabatlarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

1. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyati

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va muloqot ta'limning samarali bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi o'quvchilarga o'z bilimlarini samarali tarzda yetkazsa, o'quvchilar faqat ilm olish bilan cheklanmay, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirish va muammolarni hal qilishda ham muvaffaqiyatga erishadilar.

2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot juda muhim. Muloqotning sifatiga qarab, o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabati, o'quv jarayoniga ishtiyoqi va motivatsiyasi shakllanadi. Samarali muloqot o'qituvchining o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunishi va ularga mos ta'lim metodlarini tanlashi imkonini beradi. Muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqaning mustahkamlanishiga yordam beradi.

3. Pedagogik mahorat va motivatsiya

O'qituvchining pedagogik mahorati va o'quvchiga motivatsiya berishdagi qobiliyati o'quvchi bilan munosabatlarga bevosita ta'sir qiladi. Motivatsiya, ayniqsa, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ularning bilim olishdagi faolligini ta'minlaydi. O'qituvchi, o'zining bilim va mahorati bilan o'quvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga ishonch uyg'otishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchining o'qishga nisbatan qiziqishini oshiradi va ularning umumiy muvaffaqiyatiga yordam beradi.

4. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi emosional aloqalar

O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi emosional aloqalar ham ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. O'quvchi o'zini xavfsiz va qulay muhitda his qilsa, u darsda faol ishtirok etishga tayyor bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga yaxshi munosabatda bo'lishi, uning psixologik ehtiyojlarini tushunishi, o'quvchining o'zini ifoda etishiga va uning ichki dunyosiga hurmat bilan yondashishi juda muhimdir. Bu esa o'quvchining o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.

5. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi huquq va majburiyatlar

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar doirasida ularning huquq va majburiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish va ularga ta'limni samarali tarzda o'tish majburiyatiga ega bo'lsa, o'quvchilar ham o'z navbatida intizomni saqlash va o'qishga sodiq bo'lish majburiyatiga ega. Bu majburiyatlarning barchasi o'zaro hurmat va hamjihatlikni ta'minlashi kerak.

6. Shaxsiy yondashuv va farqlanish

Har bir o'quvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga individual yondashuv talab qilinadi. O'qituvchi, o'quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi kerak. Bu farqlanishni e'tiborga olish, o'quvchilarning o'ziga xos usulda rivojlanishiga yordam beradi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

7. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy va madaniy omillar

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy kelib chiqishiga ham bog'liqdir. Har bir o'quvchining ijtimoiy va madaniy holati, oilaviy sharoitlari o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois, o'qituvchi o'z darslarida har xil ijtimoiy qatlamlardan kelgan o'quvchilarga hurmat bilan yondashishi, ularning madaniy qadriyatlariga hurmat qilishlari zarur.

8. Xulosa

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini, balki o'quvchining shaxsiy va ruhiy rivojlanishini ham belgilaydi. Samarali munosabatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va muloqotga asoslangan bo'lishi kerak. Shaxsiy yondashuv, motivatsiya va pedagogik mahorat bu munosabatlarni yanada mustahkamlashda asosiy omillardan biridir. Bu esa o'z navbatida, o'quvchining muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Ilin I.N. Muomala san'ati. Pedagogik izlanish-I. P. Bajenova-T. O'qituvchi, 1990
2. Kaykovus. Qobusnoma. T. O'qituvchi, 1973
3. Muomala treningi. T., 1994. 17 b.
4. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari //Uzluksiz ta'lim j. - 2002. №
5. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.doktori. diss... avtoref.-T.: 2003.-44 b.
6. Abdullaeva, M. (2021). Zamonaviy tarbiya texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti.

7. Xodjayeva, D. M. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.
8. Sharipov, Sh. (2019). Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish asoslari. Samarqand: Ilm ziyo.
9. Ziyayev, B. B. (2022). O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari: yangi yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Baxromova, M. I. (2018). Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent: TDYU.